

YANGI 5-SINF "ONA TILI" DARSЛИGIDA KELTIRILGAN TOPSHIRIQLAR TAHLILI

*Avazova Farangiz Ixtiyor qizi,
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
farangizavazova97@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2024-yilda yaratilgan yangi ona tili darsligida keltirilgan tinglab tushunish kompetensiyasiga oid mashq va topshiriqlar tahlili, adabiyot fani va boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi hamda ularning o'qitilishiga oid ba'zi tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Nutq, tinglab tushunish, topshiriq, metod, aqliy hujum, ikki tomonlama kundalik, integratsiya.

YENI 5. SINIF ANA DILI DERS KITABINDA YER ALAN ÖDEVLERIN ANALIZI

*Avazova Farangiz İhtiyar kızı,
Semerkand devlet üniversitesi araştırmacısı*

Özet. Bu makale, 2024'te oluşturulan yeni ana dili ders kitabı sunulan, dinlediğini anlamaya yeterliliği, edebiyat ve diğer disiplinlerle entegrasyon ve bunların öğretimi ile ilgili alıştırmaların ve görevlerin analizi için bazı öneriler sunmaktadır.

Anahtar kelimeler. Konuşma, dinlediğini anlamaya, görev, yöntem, zihinsel saldırı, çift günlük, bütünlleşme.

АНАЛИЗ ЗАДАНИЙ, ПРИВЕДЕННЫХ В УЧЕБНИКЕ ПО РОДНОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ 5-ГО КЛАССА

*Авазова Фарангиз Ихтиёропна,
научный сотрудник Самаркандского государственного университета*

Аннотация. В данной статье представлены некоторые рекомендации по анализу упражнений и заданий на компетенцию аудирования, интеграцию с литературой и другими дисциплинами и их преподавание, представленные в новом учебнике родного языка, созданном в 2024 году.

Ключевые слова. Речь, аудирование, задание, метод, психическая атака, двойной дневник, интеграция.

ANALYSIS OF ASSIGNMENTS IN THE NEW 5TH GRADE MOTHER TONGUE TEXTBOOK

*Avazova Farangiz Ihtiyorovna,
researcher of Samarkand state university*

Annotation. This article provides some recommendations for the analysis of exercises and tasks on listening comprehension competency, integration with literature and other disciplines and their teaching, presented in the new mother tongue textbook created in 2024.

Keywords. Speaking, listening comprehension, task, method, mental attack, double diary, integration.

Nutq faoliyatini tashkil etadigan qismlardan biri hisoblanadigan tinglab tushunish ko'nikmasi ham bilish jarayonini hosil qiluvchi ko'nikmalardan biri sanaladi. Bugungi kunga kelib bu ko'nikma zarurati, nutqning mantiqiyligi, to'g'riliqi va aniqligi kabi prinsiplariga ta'siri qanchalik muhim ekanligi olimlar tomonidan o'rganilgandan so'ng yangi avlod chet tili va ona tili darsliklariga tinglab tushunish ko'nikmasiga oid topshiriqlar kiritilib boshladi va ko'plab muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Nutqiy komunikatsiyaga kirishish insonlar uchun tabiiy va zaruriy ehtiyoj sanaladi. Boshqa shaxsni tinglash orqali esa yangi axborotlar qabul qilinadi. Ayni shu axborotlarni qabul qilish chog'ida so'zlovchi fikrlari to'liq yoki ba'zi qismlari tinglovchiga tushunarli bo'lmasligi mumkin. Bunga sabab tinglab tushunish ko'nikmasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi bo'lishi mumkin. Ona tili o'qitishda bu kompetensiya qisman yangi tushuncha va topshiriq sifatida qaraladi. Chet tili o'qitish metodikasi tarixiga nazar tashlasak, XX asrning 60-yillariga kelib, tinglash nutq faoliyatining turi sifatida atroflicha tadqiq etila boshlandi. Avvaliga unga gapirishning uzviy qismi deb qarab kelingan edi. Chet tili darslarida atayin mashqlar berilmas edi. [4, 127 b]. Ma'lum bo'lishicha gapirishni o'rganishdan ko'ra, tinglab tushunishni o'rganish qiyinroq kechdi.

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda yangi 2024-yil K.Mavolonova, S.Qo'ldosheva, N.Hakimova, M.Siddiqovlar tomonidan yaratilgan 5-sinf ona tili darsligida e'tibor qaratsak, darslikda 2020-yilda nashr etilgan ona tli darsligida keltirilgan mashq va topshiriqlarda yo'l qo'yilgan topshiriqlar va kamchiliklarga tuzatishlar kiritilganini, fanlararo integratsiya hosil qilingan holda, adabiyot fani bilan uzbek bog'liq holda topshiriqlar ishlab chiqilganini ko'ramiz. Kitob ikki qismdan iborat bo'lib, har ikkala qismda savol, mashq va topshiriqlarga asos bo'lувчи audio va audiovizual topshiriqlar har bir bobda uchraydi va jami 10 tani tashkil etadi. O'quvchilar o'z ona tilida qanchalik yaxshi nutq so'zlay olsalar, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda shunchalik yorqinroq, chiroqli va sermazmun ifodalay oladilar [1, 78 b]. Ushbu fikrga asoslangan holda kitobga kiritilgan topshiriqlarning juda ko'pchiligi og'zaki nutqni shakllantirishga yo'nalganini ko'ramiz. Shu bilan birga topshiriqlar turli fanlar ayniqsa adabiyot fani bilan integratsiyalashgan holda tuzilgan. Bu esa o'quvchilarning faqatgina grammatik bilimlar bilan emas balki barcha sohaga oid bilimlar bilan tanishishiga imkon yaratib bermoqda. Bolalarni tezda fikrlash va ularni nutq so'zlashga majbur qiladigan topshiriq turlaridan biri bu savollarga javob berishdir. Jami keltirilgan 10ta audio topshiriqlarning 9 tasida savollarga o'rinn berilgan. Masalan, ona tili darsligining 1-qismi 30-sahifasida keltirilgan 1-audio topshirig'i *Orif To'xtashning "Vatan degan so'z" she'rini tinglang* nomi ostida topshiriqlar shakllantirilgan. Mavzu va mazmun jihatidan bu topshiriqlar adabiyot fani bilan kesishuvni hosil qiladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarni so'z bilan ishlashga, ularning ma'nosini tushunishga va turli lug'atlar bilan ishlashga undaydi.

2-topshiriq. Savollarga javob bering belgisi bilan berilgan:

1. *Shoir "Vatan" so'zini anglashni qanday jarayonlar bilan bog'lamoqda?*
2. *O'tmishda Vatan sarhadlari va tinchligi uchun kurashgan ota bobolarimiz haqida nimalarni bilasiz?*
3. *Nima uchun shoir urushni "almisoq mavzu" demoqda?*
4. *Vatanni madh etish deganda nimani tushunasiz?*

1-savol o'quvchidan diqqat bilan tinglashni talab etadi, chunki savolga javob mantiqiy emas aynan she'rda keltirilgan jarayonlarni so'ramoqda.

2-savol esa she'rda keltirilgan shaxslar so'ralgan, o'qituvchi o'quvchilarning bilimlari va ma'lumotlarini tekshirish maqsadida qo'shimcha tarzda o'zları bilagan, el yurt uchun kurashgan tarixiy shaxslar haqida so'rashi va qo'shimcha ma'lumotlar bilan ularning bilimini boyitib borishi mumkin. Keyingi savol javoblarda o'quvchilardan erkin fikr bildirish so'raladi. Bu topshiriqnini bajarishdan oldin, savollar diqqat bilan o'qilishi talab etiladi, o'qituvchi tomonidan aynan nimalarga e'tibor berish zarurligi o'quvchilarga tushuntiriladi. So'ng audiomatn tinglanib savollarga og'zaki tarzda javob berish so'ralsa o'quvchilar uchun tushunilishi va savollarga javob berishi osonroq kechadi. Ushbu savollardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivoyjlantirish, erkin fikrlashni o'rgatish va Vatanga bo'lgan muhabbatni shakllantirishdir.

Aynan shu audiomatnning keyingi mashq va topshiriqlariga e'tibor qaratsak: Quyidagi so'zlarning matnda ifodalagan ma'nosini aniqlab, yozing.

<i>So'zlar</i>	<i>Taxminim</i>	<i>Lug'atda</i>
<i>qarog'</i>
<i>shoyad</i>
<i>almisoq</i>
<i>to'p</i>
<i>zang</i>
<i>muddao</i>
<i>xolis</i>

I-jadval.

Bu mashq o'quvchining so'z boyligi oshishiga va ularning so'zlarning ma'nosini qaydarajada bilishini tekshirish uchun xizmat qiladi. Ushbu topshiriq adabiyot fani bilan integratsiyalashuvidan hosil bo'lganligi ona tili darsligining bir yutug'i hiosoblanadi. Ayni shunday topshiriqlarning shakllanishida K.M.Mavlonovaning "Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy mattn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining o'rni beqiyosdir. "Ona tili darslarida badiiy badiiy matndan o'quvchilarni tilimizning boy imkoniyatlari bilan tanishtirish bilangina kifoyalanmasdan, badiiy ijodga undash, bir so'z bilan aytganda, ijodiy tafakkurini rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan sanaladi" [3, 11 b]. Yuqorida keltirilgan topshiriq ayni shu vazifani oldiga qo'ygan holda shakllantirilga topshiriqdir. Bu topshiriqni bajarishda "Ikki tomonlama kundalik" metodi qo'l keladi. Bunda o'quvchilarga yuqorida keltirilgan so'zlarni kartochkada kundalik kabi jadvalga solib tayyorlab kelinadi va kundalikning ikkinchi tomoniga so'zlarning o'zları bilgan izohlarini yozish so'raladi. O'quvchilar yozib tugatgach ularning har biridan so'zlarning o'zları bilgan izohlarini so'raladi, so'ng lug'atdagi izohi bilan solishtiriladi. Bu jarayonda albatta o'qituvchi izohlarini lug'atdan topib yozib kelishi shart bo'ladi. Eng ko'p izohni topgan o'quvchi yuqori baholanadi va rag'batlantiriladi. Bu tarzda topshiriqni bajarish natijasida o'quvchida sergaklik, fikrlash va tinglash kabi ko'nikmalar riivojlanib boradi. Mashqning davomi sifatida uyga vazifa qilib shu so'zlarni ishtirot ettirgan holatda biror she'r yoki ijodiy matn tuzish beriladi. Bu ijodiy fikrlash va so'zlarni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini shakllantiradi.

Tinglab tushunish faqatgina eshitish emas audiovizual shaklda ham tashkil etilishi mumkin. Darslikning 72- sahifasida "Aqli uy" mavzusi ostida videolavha taqdim etilgan bo'lib, bunda o'quvchi tasavvurida aqli uy haqida kengroq tushuncha paydo bo'lishiga yordam beradi. O'quvchi bu jarayonda yanada diqqatliroq bo'lishi zarur bo'ladi, chunki ko'rish bilan bir paytda matnning so'zlari ham e'tibor qaratilishi kerak. Bu topshiriq texnika, IT sohasi bilan integratsiyalashgan holda yaratilgan bo'lib o'quvchining dunyoviy bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Topshiriq bajarilishidan oldin o'qituvchi tomonidan qisman o'quvchilarda "Aqli uy" haqida tushuncha hosil qilish maqsadida ma'lumotlar beriladi. So'ng savollar o'qib eshittirilib bolalardan boshlang'ich tasavvurlari so'raladi va savol tahlil etiladi. Boshlang'ich tayyorgarlik bo'lgach o'quvchilarga videolavha qo'yib beriladi.

Topshiriq: "Aqli" uylar haqidagi videolavha bilan tanishing. Savollarga javob bering!

1. "Aqli" uy deganda qanday imkoniyatlarga ega uyni tushunasiz?
2. "Aqli" uyda qanday xizmatlarni signallar yordamida boshqarish mumkin?
3. Bunday uylarning paydo bo'lishi qaysi sohalarning yutuqlari bilan bog'liq deb hisoblaysiz?
4. "Aqli" uylar haqida videoda aytilgan ma'lumotlardan tashqari yana nimalar bilasiz?

Ushbu savollarni biz o'quvchilarga "Aqliy hujum" metodidan foydalangan holda so'rasak, o'quvchilarda sergaklik va dars jarayonida yanada e'tiborli bo'lishga undaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'quvchi muloqotga tom ma'noda kirisha olishi uchun u ma'lumotlarni tinglab, ko'rib hamda o'qib tushuna olishi kerak, aks holda bu nutqiy kompetensiya tizimida bittasi bo'lmasa muloqotning tushunarilik darajasi yuqori bo'lmaydi.

Tinglab tushunish ko'nikmasi umumiyl o'rta ta'limga ayniqsa 5-6- sinflarda kengroq o'qitilishi lozim. Oldinda turgan muhim masalalardan biri ham umumiyl o'rta ta'lim tizimida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi va hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malaklarni baholashga xizmat qiluvchi o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish metodikasini yaratishdan iborat. Har qanday holatda ham barcha uchun samarali darsni tashkil qilish yo'llarini ishlab chiqish asosiy maqsad sanaladi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamroyev G'. Ona tilida o'quv topshiriqlari ishlab chiqish metodikasi. Monografiya. – Toshkent. Donishmand ziyosi. 2021. 154 b.
2. Ona tili 5-sinf (1-qism): darslik / K.M. Mavlonova,N.S. Hakimova, M.R.Siddiqov, S.H. Qo'ldosheva; muharrir O.T. Madvaliyev. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 144 b.
3. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish:ped. Fan. Fal. Dok.(Phd)...diss. Avtoref. - Toshkent, 2019.- 22 b.
4. Melikova E. Chet tilini o'qitishda tinglab tushunishning o'rni va uni rivojlantirishning yo'llari// Ta'limga va innovatsion tadqiqotlar. 2022, 10-son. 250-b.